

## TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV

*Dehqonova Jumagul Qobiljon qizi*

*Andijon viloyati Oltinko'l tumani 28-maktab texnologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada texnologiya fani darslariga integratsion yondashuv, texnologiya ta'limining shakl va metodlari, texnologiya darslariga kompetensiyon yondashuv, texnologiya ta'limi va tarbiyasining maqsad va vazifalari haqida to'liq muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya fani, kompetensiyon yondashuv, integratsion yondashuv, pedagogik talablar, texnologiya ko'nikmalari.

**Kirish:** Umumiy ta'limda o'tiladigan har bir texnologiya darsi ta'limiy va tarbiyaviy xarakterga egadir. Ta'lim jarayoni o'z o'rnida o'quvchilarga axloqiy, ma'naviy, g'oyaviy-siyosiy, texnologiya, estetik, iqtisodiy, ekologik va jismoniy tarbiyani ham berib boradi. Tajribalardan aniqki, pedagogik talablar yordamida tashkil topgan har qanday yaxshi dars o'quvchilarni mohiyatli va mazmunli bilimga ega bo'lishlarini, e'tiqod va amaliy harakatlar birikmasi sifatida esa vatanparvarlik g'oyalarini, ularning hayotiy nuqtayi nazarini, ishiga cheksiz sadoqatini takomillashtiradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Pedagogik talablar yordamida o'qitiladigan texnologiya darslarining ahamiyati yana shundan iboratki, dars mobaynida o'quvchilarda puxta bilim hosil bo'ladi, texnologiyaga ijobiy munosabat tarbiyalanadi va ularga texnologiya malakalari, shuningdek ko'nikmalari singdiriladi. O'quvchilar tomonidan egallangan bilimlar, takomillashgan malakalar va hosil bo'lgan ko'nikmalar ularni moddiy ishlab chiqarish sohasidagi amaliy faoliyatga va kasbni ongli tanlashga tayyorlaydi. Texnologiya darsining xususiyatli tomonlaridan biri shundan iboratki, o'qitish vazifasi faqat uyg'un birlikdan tashkil topgan ta'limni emas, balki mazkur sinfni, umuman har bir o'quvchining alohida xususiyatlarini nazarda tutuvchi eng yuqori aniqlik ham bo'lishi zarur. Binobarin, boshlang'ich sinfdan ta'lim oluvchi o'quvchilar

yosh xususiyati, idrok qilish qobiliyati, texnologiya sohasida tayyorgarliklari, tengdoshlari bilan munosabati, qiziqishlarining turli xilligi, xatti-harakatidagi madaniyat shakllari, tartib-intizomiga ko'ra bir-birlaridan farqlanadilar. Shu sabab, har bir dars tuzilishi o'quv materialining maqsadi va mohiyatini, o'quv faoliyatining tashkil qilinishiga ko'ra aniqlanadi.

**Natijalar:** Zamonaviy boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi boshqa fanlar ta'limi kabi o'quvchilarni nafaqat nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirish va bunday bilimlardan faqat voqealar orasidagi mavjud aloqalarni tushuntirishda har doim foydalanib qolishgina emas, balki texnologiya turlari bo'yicha puxta bilim berib o'quvchilarda texnologiya qilish malakalarini rivojlantirib borish xarakterli bo'lib borishi lozim. Ma'lumki, o'quvchining o'quv faoliyati undan faol fikr yuritib ishlashni talab etadigan qilib tashkil qilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Texnologiya ta'limida ham shunday yo'l tutilishi kerak. Ma'lumki, bunday ta'lim o'quvchining texnologiya to'g'risida, texnologiyaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga doir aqliy qobiliyatlarini har kuni mashq qildiradigan, texnologiya bilan doimiy shug'ullanib turish jarayoniga aylanadi.

**Muhokama:** Texnologiyani to'g'ri anglatish aqlan faol faoliyatga asoslangan har ishdan o'quvchilar yuqori qoniqish hissiyotga ega bo'lishlariga olib keladi. Fanlar aloqadorligida texnologiya fanini tashkil qilish uchun o'qituvchi maktabda o'rganiladigan o'quv predmetlari bilan uzviy bog'lasa yaxshi natijalarga erishadi. Buning uchun mehnatning o'quv- ijodiy xususiyati, shuningdek ilmiy bilimlardan foydalanishi zarur. Texnologiya fani va an'analarning muhim vazifalari o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'qitish va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasb tanlash izchilligini rivojlantirish, davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha tarbiyalash, shuningdek o'quvchilarni kasb-hunar egasi bo'lib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishlardan tashkil topgan. Mehnat madaniyatini tarkib topishi uchun darslarda har doim bolalarning e'tiborini asbob va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to'g'ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlarini me'yori va sifatiga, ish ko'rsatkichini

ta'minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya etishga va nihoyat narsani chiroyli qilib bezashga talab qilib borish darkor.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mehnatga ruhiy tomonlama tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p jihatli jarayon sanalib, u butun texnologiya fani va tarbiyasiga singib ketgandir. U zotam o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir. O'quvchini mehnatga ruhiy tomondan tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy ko'nikma va malakalarni egallashga qiziqishni rivojlantirish demakdir.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xalilbek o'g'li X. E. ICHKI YONUV DVIGATEL DETALLARINI QURUM BOSISHINI TEKSHIRISH //World scientific research journal. – 2023. – T. 18. – №. 1. – C. 110-115.

2. Xalimjonov E. Motor moylari, xossalari va ularda bo'ladigan'ozgarishlarni aniqlash //Актуальные вопросы высшего образования–2023. – 2023.

3. Matlab Tilavova "Mehnat va uni o'qitish metodikasi". Toshkent "Turon Zamin Ziyo" 2017.

4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. "Mehnatta'limi" 2-sinf darsligi. T., "Nafis bezak" 2012.

5. Xalilbek o'g'li X. E. ICHKI YONUV DVIGATEL DETALLARINI QURUM BOSISHINI TEKSHIRISH //World scientific research journal. – 2023. – T. 18. – №. 1. – C. 110-115.